

BIOLOGIK TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDOSHUV

Zamonova Manzura Vali qizii
*JDPU Sirtqi bo'lim, Tabiiy va aniq fanlarda
masofaviy ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib dunyo miqyosiada o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimizi bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

(Sh. M. Mirziyoyev)

Annotatsiya: Biologik ta'limgni tashkil etishda innovatsion yondoshuvni o'rGANISHGA bag'ishlangan. Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoniga texnologik yondoshuv turlari va bosqichlari , Ta'lim jarayonidagi ta'lim shakillari , usul va vositalari, Ta'lim jarayonida seminar amaliy, ekskursiya yo'nalishi va tuzilishi , Biologik ta'limgni innovatsion yondoshuv orqali dars jarayonida qo'llashga doir zoologiya faniga oid bir soatlik dars ishlanmasi tayyorlash haqida keng ma'lumotlar keltirilgan..

Tayanch so'zlar: dars ishlanma , Pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondoshuv.

Аннотация: В данной статье 20 января состоялось расширенное совещание Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева по вопросам развития системы иностранных языков и профессионального обучения в школах. Данная магистерская работа посвящена изучению инновационного подхода к организации биологического образования. Педагогические технологии в виды и этапы технологического подхода к образовательному процессу, формы обучения в образовательном процессе, методы и средства, направление и структура практического семинара в образовательном процессе, направление и структура экскурсии , биологическое образование в ходе урока через инновационный подход Имеется обширная информация о том, как подготовить часовой план урока по зоологии

Ключевые слова: Разработка уроков, Педагогические технологии, инновационный подход.

Abstract: In this article, the extended meeting of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev on the issues of development of the system of foreign languages and vocational training in schools was held on January 20. Pedagogical technologies types and stages of the technological approach to the educational process, forms of education in the educational process, methods and tools, the direction and structure of a practical seminar in the educational process, the direction and structure of an excursion, biological education in the course of the lesson through an innovative

approach There is extensive information on how to prepare a one-hour lesson plan on zoology.

Key words: *lesson development, Pedagogical technologies, innovative approach.*

O'zbekiston Respublikasida ta'lif sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlarning mazmuni bugungi kunda ta'lif jarayonini loyihalashga yangicha yondoshuv asosida boyib bormoqda.

Ta'limga texnologik yondoshuv ta'lif jarayoonini aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatdaydi.

Pedagogik texnologiya – vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qisimlarining vazifalarini aniq belgilangan tizimi hisblanadi.

Ta'lif texnologiyalari – pedagogik faoliyatning ma'lum sohasini qamrab oladigan faoliyat sohasi, bir tomandan, tanilgan texnologiyaga muvofiq uning asosini tashkil etuvchi qatorlar tizimini hosil qilsa, ikkinchi, tomonidan, faoliyat-ning tarkbiy qismi sifatida yuzaga chiqadi.


Texnologik yondashuv turli sohalarni konseptual va loyihali o'zlashtirish, ta'limi, pedagogik, ijtimoiy faolyat qirrallarini ochishda yangi imkonyatlarni yaratadi.

Jumladan:


- natijalarni yuqori aniqlikda qayd etish va pedagogik jarayoni samarali boshqarish;
- mayjud amaliy tajribalarni ilmiy asosda tahlil etish va qo'llash;
- ta'limi va ijtimoiy - tarbiyaviy muomallarni yaxlit hal etish;
- shaxs rivojlanishi uchun qulay sharoitni ta'minlash;
- insoniyatga noqulay holatlarning ta'sirini kamaytirish;
- resurslardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish;
- kadrlar taylorlash milliy modeliga muofiq samarador yangi texnologiya-larni ishlab chiqish va ijtimoiy - pedagogik muommalarini hal etish imkonyatini beradi.

G.K.Selevkoning fikricha, pedagogik faoliyatni qamrab olish sohosiga muofiq pedagogik texnologiya quyidagi to'rt guruhga ajratiladi (vertikal struktura):

1 – shakl



Pedagogik texnologiyaning yotiқ (gorizontal) tuzilmasi uch asosiy nuqtai nazarni ifodalaydi:



1.2 Ta'limni tashkil etishga nisbatan innovatsion yondoshuvlar mazmuni.

Ta'limni "texnologik" yo'nalishda ko'rishning umumiy mezoni uning aniq va puxta o'ylangan maqsadga yo'naltirilganligidadir. Mazkur holat asosi (umumiy) hamda juz'iy maqsadlarni amalga oshirish uchun muayyan qonuniyat, jarayon, tizim va unga mos amallar majmuuni mavjud bo'lishi taqoza etiladi. Pedagogik texnologiyaning vositaviy yo'naltirilganligi uning keng imkonyatlarini ochib beradi. Bu o'rinda ta'limning tashkiliy jihatlari, avaldan, go'yoki tashqaridan belgilangan maqsadlarga erishish usuli sifatida qaraladi. Mos ravishda amalga oshirilgan talab etiladigan jarayonlar mohiyatini tahlil etish, ularni saralash o'quv faolyati mazmuninini hisobga olgan holda yo'lga qo'yiladi.

"Pedagogik tenologiya" doirasida aniqlanib olinuvchi maqsadlarning empirik tahliligina beriladi. Ta'lim maqsadlari borasida olib borilgan tahlil empirik tafsifda

“texnologik” ishlanmalarining didaktik jihatdan to’laqonli bo’lmasligini ko’rsatadi. Umumiylididaktik maqsadlarning “texnik” deduksiyasi “pedagogik texnologiya” ning didaktik imkonyatlarini ko’rsatuvchi muhim jihat hisoblanadi.

Ta’lim maqsadlarining tahliliy bayonidan tashqari muayyan o’quv jarayoni uchun ta’lim uslublarini tanlashning muhim sharti o’quvchilarning bilim darajalarini oldindan tashxislash, ularning ko’nikma va malakalarini mavjud me’yoriy talablar bilan taqqoslash e’tirof etiladi.


Ta’lim jarayonining borishi o’quvchilarning belgilangan maqsad yo’lida harakat qilishlarini uzlusiz nazorat qilishni ko’zda tutadi. Mazkur jarayon texnologik ta’lim tizimining yuqori darajali imkoniyatlarini ochib beradi.

Pedagogik texnologiya ta’lim maqsadiga tashkiliy – uslubiy vositalar yorda-mida erishish mumkinligini ifodalaydi. Agar texnologik tizimlarda asosiy e’tibor bilimlarni uzatish va o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilgan bilimlar darajasini aniqlash maqsadida nazarotni yo’lga qo’yish borasidagi harakatlar tizimini ishlab chiqishga yo’naltirilgan bo’lib, uslublar majmuasini tanlash asosida amalga oshiriladi.

Texnologik yondoshuvning yana bir xususiyati bo’lgan davriy ketma-ketlik pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini ortishiga xizmat qiladi va rejalash-tirilgan standart natijalarga erishish imkonini beradi.

Ta’limning to’laligicha standartlashtirishga yo’naltirilganligi texnologik yondoshuvga xos bo’lib, u didaktikadan ta’limning asosiy jihatlaridan biri sifatida e’tirof etiluvchi va keyingi yillarda butun jahon pedagogikasining tadqiqot ob’ektiviga aylangan o’qituvchi hamda o’quvchi o’rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar mazmunini ifodalaydi.

Ta’lim jarayonini loyihalashda texnologik yondoshuv quyidagi asosiy bosqichlaridan iborat bo’ladi (3 shakl);



Texnologik yondoshuv asosida o'quv jarayonini loyihalash bosqichlari Bosqichlar ketma-ketligining mohiyati o'qituvchi harakatlarining davriyli-gini, takrorlanuvchanligini ifodalaydi. Bosqichlarning bir-biriga muvofiq ravishda ketma-ket kelishi o'qituvchi harakatining muayyan maqsadi, aniq nazorat usullari hamda ta'lif shakli asosida bir necha marotaba takrorlanib borishi hisobiga nihoyasiga yetkazilishini anglatadi.

Bunday yondoshuv ta'lif samaradorligiga erishish, ta'lif jarayonining mazmunini, o'quvchiga ilmiy bilimlarni turli vositalar yordamida yetkazib berishni nazarda tutadi. Umumpedagogik tamoyil nuqtai nazaridan ta'lif natijasida samarali ravishda o'zlashtiriladigan bilimlarni, o'qituvchi va o'qituvchilarning birgalikdagi tadqiqotchilik faoliyatini, bu borada orttirilgan tajriba hamda o'quvchilarning axloqiy-hissiy sifatlarini shakillanganligi bilan belgilanadi.

Ta'lif maqsadlari, baholash mezonlari hamda ta'limiy sharoitlarni takroriy hosil qilish asosida tarbiyaviy faoliyat jarayoniga hamda pedagogik texnologiya-larni samarali tadbiq etish mumkin. Shu tarzda pedagogik texnologiyaning asl mohiyati namoyon bo'ladi, shunigdek, o'quv va tarbiyaviy faoliyat o'rtasidagi tafovut barham topadi. Ta'lif texnologiyasi ta'lif maqsadlarini aniqlashtirish, yaxlit jarayonni qismlarga ajratish, ta'lif natijalarini standartlashtirish, ta'lif jarayonini samarali teskari aloqasini ta'minlash, avtomatlashtirish imkonyatlarini takomlashtirish kabi muhim ta'limiy muammolarni ijobiy hal qilish imkonini beradi. Mazkur muammolarni hal etishda mavjud pedagogik (avtomatlashgan va avtomatlashmagan) tajribani inobatga olish, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish maqsadga muvofiqliqdir.

Pedagogik texnologiyaning rivojlanish istiqbollari uning nazariy asoslarini tanqidiy ravishda tahlil qilish, ta'lif jarayoniga nisbatan samarali yondoshuvning qaror topishi hisobiga ta'minlanadi.Ya'ni, ma'lum vaqt oralig'ida pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini o'zgartirish bilan birga uning "muammo maydoni" ni ham o'zgartirish mumkin bo'ladi. [10, 186-b]


Ta'lif jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish bir qator didaktik vazifalarni ijobiy hal etishni taqoza qiladi. Chunonchi, didakik maqsadlar ro'yxatini ishlab chiqish, ularga muvofiq ravishda ta'lif jarayonini loyihalashda yaxlit jarayon hamda uning bosqichlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash, o'quvchilar tamonidan ijtimoiy tajribaning to'loqonli o'zlashtirilishi, barcha o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalari darajalarining tenglashuviga erishish va hokozalar.

Ma'lumki, har qaday pedagogik texnologiya ta'lifni rivojlantiruvchi tamoyillarga asloslangan bo'lib, o'quvchi shaxsini tarbiyalashga yo'naltirilmog'i lozim. Pedagogik texnologiya nazariyasining markazida ta'lif jarayonining rahbari, ayni vaqtida, ushbu jarayoning sub'ekti, ham ob'ekti bo'lgan o'qituvchi va o'quvchilar turadilar. Shunday ekan, ushbu sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, o'zaro muloqot, ularning bir-birlariga nisbatan ko'rsatadigan aks ta'sirlarining zamonaviy talablariga javob bera olishi zarur. Buning uchun o'quvchi, eng avvalo, ta'lif-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish tamoyillari,yo'llari,o'quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirishga

xizmat qiluvchi usullar, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qish va o'rganishiga yo'naltirish, o'quvchi shaxsi faoliya-tini to'g'ri tashkil etish, jarayonida yuzaga keluvchi muammo va kelishmovchilik-larni birgalikda bartaraf etish, auditoriyada ijodiy,ishchanlik muhitini hosil qilish, o'quvchi faoliyatini aniq va to'g'ri baholashga imkon beruvchi metodlar bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari va ularning mohiyatini bilish mazkur jarayon borasida aniq tasavvurga ega bo'lismizga imkon yaratadi. Shu bois biz quyidagi pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari va ularning mohiyati xususida so'z yuritmoqchimiz.

Pedagogik texnologiya umumiy didaktik tamoyillarga ega bo'lishi bilan birga, quyidagi aynan o'zigagina xos bo'lgan tamoyillarga ham egadir (4-shakl).



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston, 2016. B.8
2. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik taraqqiyot yo'li . – Toshkent: 2007. -24 6.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 48 b.
4. Karimov I.A. O'zbekistan – kelajagi buyuk davlat. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 54 b.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Hujjatlar to'plami. – Toshkent: Shark, 1997.– 5-10 b.
6. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Tashkent: Fan va texnologiyalar, 2006. -186 b.
7. 11. Jo'raev R., Samatov B, Qarshiboev Q. Zamonaviy informatsion va pedagogik texnologiyalar asosida tabiiy fanlarni o'qitish.//Xalq ta'limi. – 2002. - №3, - 6-9 b.
8. 9.